Annotatsiya: Ayollarga nisbatan zo'rvonlikning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati yoritiladi. O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati, qonunchilik hamda himoya mexanizmlari tahlil qilinadi. Tazyiq va zo'rvonlikka qarshi kurashish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularni rehabilitatsiya qilish maqsadida rehabilitatsiya markazlari, hududiy shelterlar hamda birlamchi ko'mak xonalari faoliyati tashkil etilgani ko'rsatib beriladi. Mazkur tizim psixologik, huquqiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, sud va prokuror ishtiroki hamda ijtimoiy shartnomalar orqali ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlashga xizmat qilishi asoslanadi. Milliy qonunchilik va xalqaro konvensiyalar asosida zo'rvonlikning barcha shakllariga qarshi huquqiy baza yaratilgani, shuningdek, jinoyat va ma'muriy javobgarlik belgilanganligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ayollarga nisbatan zo'rvonlik, gender tenglik, huquqiy himoya, rehabilitatsiya markazlari, tazyiq, oilaviy zo'rvonlik, ijtimoiy xizmatlar, huquqiy islohotlar, shelterlar, ijtimoiy faollik.

Abstract: The social and legal significance of violence against women is examined. State policy, legislation, and protection mechanisms implemented in Uzbekistan in this field are analyzed. It is shown that rehabilitation centers, regional shelters, and primary assistance units have been established to combat violence, protect victims, and ensure their rehabilitation. This system provides psychological, legal, and social services, involves courts and prosecutors, and facilitates social reintegration through social contracts. Based on national legislation and international conventions, a comprehensive legal framework against all forms of violence has been developed, and criminal as well as administrative liability has been established.

Key words: violence against women, gender equality, legal protection, rehabilitation centers, pressure, domestic violence, social services, legal reforms, shelters, social activity.

Аннотация: Рассматривается социальное и правовое значение насилия в отношении женщин. Анализируются государственная политика, законодательство и механизмы защиты, реализуемые в Узбекистане в данной сфере. Показано, что в целях борьбы с насилием, защиты пострадавших и их реабилитации созданы реабилитационные центры, территориальные приюты и первичные пункты помощи. Обосновывается, что данная система обеспечивает оказание психологических, правовых и социальных услуг, участие суда и прокуратуры, а также реализацию социальных контрактов, способствующих социальной адаптации. На основе национального законодательства и международных конвенций сформирована правовая база против всех форм насилия, установлена уголовная и административная ответственность.

Ключевые слова: насилие в отношении женщин, гендерное равенство, правовая защита, реабилитационные центры, давление, семейное насилие, социальные услуги, правовые реформы, приюты, социальная активность.

KIRISH

Ma'lumki, ayollarga nisbatan zo'rvonlik faqat oilaviy muammo sifatida qaralmaydi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotiga tahdid soluvchi muhim ijtimoiy fenomen hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati va huquqiy islohotlar ayollarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish hamda ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Har bir fuqaro, erkak yoki ayol, zo'rvonlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi hamda adolat va gender tengligini qo'llab-quvvatlashi zarur. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasida davlat siyosati asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari bilan belgilab berilgan.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasida davlat gender siyosati, dasturlar va strategiyalar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu jarayon jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka murosasiz muhit yaratish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga

qaratilgan. Shuningdek, himoya choralar zo'rvonlikning oldini olish, uni aniqlash va cheklashga hamda bunday holatlarga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tazyiq va zo'rvonlikka qarshi samarali choralarni amalga oshirish uchun davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniyligni mustahkamlash ishlari ham olib borilmoqda.

Milliy qonunchilikda ushbu yo'nalishning asosiy huquqiy asoslari belgilab berilgan va xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik holatlarining oldini olish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlarini takomillashtirish choralar belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollarga nisbatan zo'rvonlik muammosi ijtimoiy va huquqiy jihatdan ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonlik tadqiqotchilar – M. Xudoyberdiyeva hamda N. Abdullayeva o'z ishlarida gender tenglik va xotin-qizlarni himoya qilish masalalarini ijtimoiy siyosat bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Ularning fikricha, ayollarga nisbatan zo'rvonlikni kamaytirishda davlatning huquqiy mexanizmlari bilan bir qatorda jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, D. Yuldasheva tadqiqotlarida oilaviy zo'rvonlikning psixologik va ijtimoiy omillari yoritilib, jabrlanuvchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham mazkur muammo keng yoritilgan. BMT va uning tarkibidagi UN Women tashkiloti tomonidan olib borilgan tahlillarda ayollarga nisbatan zo'rvonlik global muammo sifatida baholanadi. 1979-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konventsiya ayollarning huquqlarini himoya qilishning muhim xalqaro huquqiy asosi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, Jahon bankining "Women, Business and the Law" hisobotlarida gender tenglikni ta'minlash va zo'rvonlikka qarshi kurashish davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Rossiyalik olimlardan R. E. Levina va L. S. Vygotskiy asarlarida shaxsning ijtimoiy muhitda shakllanishi va psixologik omillar tahlil qilinib, bu yondashuvlar zo'rvonlik muammosini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek pedagog olimlari, jumladan, Sh. Sharipov va B. Qurbonovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa yoshlar va oilalarda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, huquqiy madaniyatni oshirish orqali zo'rvonlikning oldini olish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu tadqiqotlar ayollarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurashishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar bir necha usullar asosida yig'ildi: normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan qonunlar, qarorlar va xalqaro konvensiyalar tahlil qilindi, shuningdek, ayollarga nisbatan zo'rvonlik holatlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar va hisobotlardan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati, reabilitatsiya muassasalari tajribasi hamda mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali jamlandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida qayta ishlanib, zo'rvonlikning asosiy omillari, uning oldini olish mexanizmlari va huquqiy himoya tizimining samaradorligi aniqlab berildi. Shuningdek, mazmuniy tahlil yordamida normativ hujjatlar va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik baholanib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari ilmiy asosda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5116-sonli¹ qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 625-sonli² qarorlari bilan ilk bor reabilitatsiya markazlari tashkil etilib, tazyiq va zo'rvonlik qurbonlari bilan ishlash asoslari yaratilgan.

Zo'rvonlik holatlarining oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun orderlar berish va reabilitatsiya markazlari faoliyatini tashkil qilish tizimi belgilab berildi. Shu bilan birga, xotin-qizlar bilan ishlash maqsadida tuman va shahar darajasida maxsus guruhlar tashkil etildi. O'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5116-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-5426644>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 625-sonli qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-5670659?%2000>



bo'yicha tizimli chora-tadbirlar yo'lga qo'yildi. Zo'ravonlikni erta aniqlashda profilaktika inspektorlari va psixologlar hamkorligi kuchaytirildi.

Shu yo'nalishda gender tenglikni ta'minlashning asosiy huquqiy asoslari ham yaratildi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga asoslanib, gender tenglik va ayollarning ijtimoiy faolligini ta'minlaydigan asosiy huquqiy hujjat ishlab chiqildi. Milliy va xalqaro qonunchilik tajribasi o'rganib chiqildi.

Jumladan, BMT tahlillariga ko'ra, har uchta ayolning kamida biri hayoti davomida zo'ravonlikning turli shakllariga duch kelishi qayd etilgan. Shu bois mazkur muammo butun jahonda dolzarb hisoblanadi. Bu borada milliy qonunchilik bilan barobar xalqaro huquqiy hujjatlar va tahlillar ham o'rganib borilmoqda. "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konventsiya 1979-yil 18-dekabrda Nyu-York shahrida BMT tomonidan qabul qilingan bo'lib, ayollarga nisbatan kamsitishni har qanday shaklda bartaraf etish va ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalarida teng huquqliligini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik – bu ularning jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy yoki boshqa turdagi daxlsizligini buzish, kamsitish yoki tahdid ostida ushlab turishni anglatadi. Bu holatlar nafaqat oila doirasida, balki ish joyida, ta'lim muassasalarida, jamoat joylarida ham yuz berishi mumkin. Ushbu holatlarning oldini olish bo'yicha yangilangan huquqiy asoslar ham ishlab chiqildi.

Zo'rlik bilan bog'liq huquqiy aktlar to'g'risidagi qonuniy hamda ma'muriy o'zgarishlar 2023-yil 11-aprelda Prezident tomonidan imzolangan qonunda xotin-qizlar hamda bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik jinoyat sifatida tan olingan. Yangilanishlar: tizimsizlik, psixologik zo'ravonlik, erkinlikni cheklash, qo'rqitish kabi holatlar ilgari bo'lmagan holatlarda jinoiy va ma'muriy javobgarlikka olingan. Masalan, erkak yoki sherik tomonidan oila ichidagi zo'ravonlik uchun jinoiy jazo belgilandi. Jinsiy va iqtisodiy zo'ravonlikka qarshi chora-tadbirlar to'g'risidagi qo'shimcha normalar 2024-yil 20-sentyabrda Senat tomonidan qabul qilingan qonunda bolalar va xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha yangi tartiblar joriy etilgan.

Davlat idoralari va davlat ulushi bo'lgan tashkilotlarda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq qurboni bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishda cheklovsiz normalar kiritildi. 2024-yil 18-martda e'lon qilingan "Gender tenglikni amalga oshirish bo'yicha kompleks harakat dasturi – 2030" tasdiqlangan. UN Women ofisining O'zbekistonda ochilishi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish doirasida 2025-yil 29-mayda Toshkent shahrida UN Women ofisi ochilishi gender tenglik va zo'ravonlikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni yana mustahkamladi.

Bu holat jalb etilgan institutlar, chora-tadbirlar va davlat siyosatini jahonning ilg'or tajribasi asosida olib borish imkonini yaratdi. Jahon bankining World Bank hisobotiga ko'ra, O'zbekiston 2022–2023-yillarda gender tengligi bo'yicha bir qator huquqiy islohotlarni amalga oshirdi va "Women, Business and the Law – 2024" reytingida eng ko'p islohot amalga oshirgan 5 ta davlat qatoriga kirdi. 2023-yil 12-aprelda qabul qilingan ZRU-829 "Ayrim qonun hujjatlariga xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qonun orqali ayollarga va bolalarga nisbatan jinsga asoslangan zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik hamda iqtisodiy zo'ravonlikning bir qator shakllari qonunchilikka kiritildi.

Qolaversa, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks tarkibiga yangi moddalar va ta'riflar joriy qilindi, masalan, oilaviy-maishiy zo'ravonlik tushunchasi hamda jinsiy ta'qib uchun ma'muriy javobgarlik. (Jinoyat kodeksiga kiritilgan yangi modda – 126-1-modda "Oilaviy-maishiy zo'ravonlik"). Bu modda 2023-yilda qabul qilinib, ZRU-829-son Qonun hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan birgalikda joriy etilgan. Unda oilaviy zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan, ya'ni ilgari ma'muriy tartibda ko'rib chiqilgan holatlar endilikda jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin.

2024-yilda bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilik bolalarni himoya qilishni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tiklanish choralari, jinoyat va ma'muriy jazolar, sudlar o'rtasida kelishuv yuzasidan yangi tartiblar belgilandi. Tahlillar ushbu qonunchilik o'zgarishlarining davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari (oldini olish, huquqiy tarbiya, tashkiliy-huquqiy mexanizmlar) bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mazkur yo'nalish farmon va bir qator qarorlar bilan yanada takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari asosida aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmog'da. Mazkur hujjatlar asosida Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi hamda uning hududiy bo'limlarini tashkil etish chora-tadbirlari kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-maydagi "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-175-sonli³ qarori bilan tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarini

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-maydagi "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-175-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-6916638>

tegishli hududdagi shoshilinch qabul bo'limlari mavjud shifoxonalar negizida tashkil etilgan birlamchi ko'mak xonalariga joylashtirish tartibi belgilandi.

Bugungi kunda 194 ta birlamchi ko'mak xonalari tashkil etilib, jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash maqsadida tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlari uch sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga joylashtirilmoqda.

Shuningdek, shoshilinch birinchi yordam, jumladan, ruhiy va psixoterapevtik yordam ko'rsatish, shu bilan birga yuqumli kasalliklar mavjudligi bo'yicha tahlillar o'tkazilib, jabrlanuvchining salomatlik holati to'liq baholandi va zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish yo'nalishlari tashkil etilib, ularni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazining 14 ta hududiy markazlarida vaqtinchalik boshpana (shelterlar) faoliyati yo'lga qo'yilgan. Markazlarda 70 dan ortiq shtat birliklari hamda zarur moddiy-texnika bazasi yaratilgan. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarning ijtimoiylashuv darajasi ijtimoiy xodim, xotin-qizlar faoli hamda profilaktika inspektori tomonidan olti oy davomida monitoring qilinadi:

1. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar va ularning farzandlari, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudlarga ariza (shikoyat) va da'volar kiritishda davlat bojidan ozod qilish;
2. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarning yo'qotilgan bank plastik kartasini tiklash uchun tijorat banklariga murojaat qilish yuzasidan notarial tasdiqlangan ishonchnomaga tenglashtirilgan ishonchnomani tasdiqlash huquqini berish;
3. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hududiy markazlariga joylashtirilgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari, shuningdek, voyaga yetmagan bolalar biometrik pasportlari (ID-kartalari) yo'qolgan taqdirda, ularni qayta rasmiylashtirish huquqiga ega;
4. Shuningdek, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar va nikoh qayd etilganligi haqidagi guvohnomalar o'rniga yangi hujjatlarni olish imkoniyati yaratiladi;
5. Nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish, yolg'iz ona arizasiga asosan qayd etilgan tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani olish ham ta'minlanadi;
6. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirganlik haqidagi ma'lumotnoma hamda yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qolgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlashda jarima, davlat boji va gerb yig'imidan ozod qilish choralar belgilangan.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda majburiy tartibda prokuror ishtirokini ta'minlash yo'lga qo'yilgan.

Respublika markazi va uning hududiy bo'limlariga joylashtirilgan shaxslarning ijtimoiylashuv darajasini oshirish hamda reabilitatsiya dasturi bilan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy shartnoma tuzish amaliyoti joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi "Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 354-son⁴ qaroriga asosan "112" yagona dispetcherlik xizmati hamda 1146 qisqa raqamli "ishonch telefoni"ga tazyiq va zo'ravonlik holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushganda, mutaxassislar tomonidan xotin-qizlarga ijtimoiy, psixologik, huquqiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatiladi.

Bunda xotin-qizlarga shoshilinch ruhiy, psixoterapevtik va huquqiy yordam ko'rsatish, shuningdek, tazyiq yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan zarur choralar ko'rish holatlarida mazkur qo'ng'iroqlar ichki ishlar organlari navbatchilik qismining "102" telefon raqamiga yo'naltiriladi.

Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning ma'muriy reglamenti ishlab chiqilgan. Reglamentga asosan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlik holatlari bo'yicha murojaatlarni qabul qilish, shaxsning holatini baholash, zarur xizmatlarni ko'rsatish, hududiy markazlarga joylashtirish hamda reabilitatsiya xizmatlarini tashkil etish, yakka tartibdagi ijtimoiy reabilitatsiya dasturiga muvofiq xizmatlar ko'rsatish va natijalarini "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimiga kiritish ishlari amalga oshiriladi.

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi "Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 354-son qarori: <https://lex.uz/docs/-6982043>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola ayollarga nisbatan zo'rvonlik muammosining ijtimoiy va huquqiy ahamiyatini yoritib, O'zbekistonda sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati, huquqiy islohotlar va himoya mexanizmlari haqida ma'lumot beradi. Ayollarga va ularning voyaga yetmagan farzandlariga nisbatan zo'rvonlik nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy muammo sifatida qaraladi. Davlat siyosati va qonunchilik ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash hamda ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Tazyiq va zo'rvonlikka qarshi chora-tadbirlar doirasida reabilitatsiya markazlari, hududiy shelterlar va birlamchi ko'mak xonalari tashkil etilgan. Jabrlanuvchilarga psixologik, huquqiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan, shuningdek, sud va prokuror ishtiroki hamda ijtimoiy shartnomalar orqali ijtimoiylashuv jarayoni nazorat qilinadi.

Milliy qonunchilik va xalqaro konvensiyalar asosida zo'rvonlikning barcha shakllariga qarshi huquqiy baza yaratilgan, jumladan, jinoyat va ma'muriy javobgarlik belgilangan. Shuningdek, O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularni reabilitatsiya qilish bo'yicha kompleks hamda tizimli davlat siyosati va huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5116-son qarori. “Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”. Toshkent, 19.05.2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 625-son qarori. “Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”. Toshkent, 06.10.2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Gender tenglikni amalga oshirish bo'yicha kompleks harakat dasturi – 2030”. Toshkent, 18.03.2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–175-son qarori. “Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida”. Toshkent, 10.05.2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 354-son qarori. “Tazyiq va zo'rvonlik holatlariga tezkor javob berish tizimini takomillashtirish to'g'risida”. Toshkent, 25.06.2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”. Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonuni ZRU–829. “Ayrim qonun hujjatlariga xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishni yanada takomillashtirish to'g'risida”. Toshkent, 12.04.2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 126-1-modda “Oilaviy-maishiy zo'rvonlik”.
9. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
10. BMT (United Nations). “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi Konventsiya (CEDAW). Nyu-York, 18.12.1979.
11. World Bank. “Women, Business and the Law 2024” hisoboti.
12. UN Women. O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va zo'rvonlikka qarshi kurash bo'yicha materiallar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.